

DOI: 10.5281/zenodo.15869936

Link: <https://zenodo.org/records/15869936>

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARINING XALQARO STANDARTLAR INING NAZARIY ASOSLARI.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Kat.o'qituvchi Yax'yaeva Dilfuza Bagdatovna

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida buxgalteriya hisobini isloh qilish xamda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarning nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy xisobning xalqaro standartlari, miliyavy hisob, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tashabbuslari bilan 2022 yil 28 yanvar kuni qabul qilingan “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida”gi PF-60- sonli farmonida “milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish” vazifasi belgilangan [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish imkonini beradi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish davrida o'tayotgan har bir kun jamiyatimizning mazmun jixatdan yangilanayotganidan dalolat berib kelmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan samarali va barqaror iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'z samarasini namoyon qilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berilgan. Ular o'z faoliyatini yanada rivojlantirishi uchun ularning olgan moliyaviy natijalarining ahamiyati kattadir. Korxonalar o'z faoliyati davomida yetarli darajada daromad olib xarajatlarni amalga oshirmoqdalar. Ularning olgan foydalaridan o'z maqsadlari yo'lida mustaqil foydalanadilar.

Davlatimiz rahbari, avvalo, o'tgan yilgi uchrashuvdan beri bajarilgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tdi. Jumladan, biznes muhit yaxshilangani natijasida o'tgan bir yil davomida tadbirkorlar tomonidan 55 mingdan ortiq biznes uchun binolar qurilgan. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlik sub'ektlari soni 5 mingtaga ko'payib, 26 mingtaga yetgan. Yana ming nafari tovar aylanmasini 1 milliondan 10 million dollargacha yetkazgan, 220 nafarining tushumlari esa 100 million dollarga yetgan. Eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingta bo'lgan, umumiy eksport hajmi 30 foizga ko'paygan. Ushbu, navbatdagi muloqot arafasida ham “koll-markaz” tashkil etildi va tadbirkorlardan 12 mingdan ortiq murojaat kelib tushdi. Ularda shaxsiy yoki mahalliy muammolar bilan birga tizimli masalalar ham

ko‘tarilgan. Ular bo‘yicha eng maqbul yo‘llarni topish uchun tahliliy ish olib borilishi qayd etildi.

Prezident beshta asosiy yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tib, ularning har biri bo‘yicha ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchi yo‘nalishda korxonalarni toifalarga ajratib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida yondashuvlar belgilandi.

Xususan, yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan korxonalar – mikro biznes, 10 milliard so‘mgacha bo‘lgani – kichik biznes va 100 milliard so‘mgacha bo‘lgani o‘rta biznes toifasiga kiradi.⁴⁶

Shundan kelib chiqib, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan stavkalari o‘rniga, yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etiladi.

Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirilishi ma‘lum qilindi.

Raqamlashtirish iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy natijalarni ijobiy bo‘lishini ta‘minlashda hamda moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri tuzilishida buxgalteriya hisobining ahamiyati kattadir. Chunki, moliyaviy va boshqaruv hisobi orqali moliyaviy natijalarni o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi xarajatlar to‘g‘risida o‘z vaqtida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Natijada bunday xarajatlarni ortib ketmasligini ta‘minlanadi. Bundan tashqari moliyaviy hisobotlar o‘z vaqtida tahlil qilinib, ularni yaxshilash uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi.

Кичик бизнес субъектларида бухгалтерiya hisobi va hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq mukammaltirish masalalari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda buxgalteriya hisobining dastlabki hisob ma‘lumotlarining tuzilishi va ularning rasmiylashtirilishini, shuningdek, tuziladigan hisobotlarning shakli va mazmunini takomillashtirishni taqazo etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarni o‘rganish «hisobot» va «moliyaviy hisobot» ushunchalariga berilgan ta‘riflarda ham tub farqlarning mavjuddigini ko‘rsatdi, hamda ushbu ta‘riflar ularning iqtisodiy mazmunini ochib beradi.

1-jadval

«Hisobot» va «Moliyaviy hisobot» tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta‘riflarning qiyosiy tahlili

T/r	«Hisobot» tushunchasiga berilgan ta‘riflar va ular keltirilgan manbalar	T/r	«Moliyaviy hisobot» tushunchasiga berilgan ta‘riflar va ular keltirilgan manbalar
1	«Hisobot-bu asosiy fondlar, me‘yorlashtiriladigan va me‘yorlashtirilmaydigan aylanma mablag‘lar hamda ushbu mablag‘larning tashkil topish manbalari holati, shuningdek ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlari, moliyaviy natijalar va foydadan foydalanishi yo‘nalishlarining o‘zaro bog‘langan va umumlashtirilgan tizimidir.» (Бухгалтерский	1	Moliyaviy hisobot har bir mamlakatda qabul qilingan tartib-qoidalar asosida buxgalteriya hisobi ma‘lumotlarini umumlashtirish natijasida sub’yektning mol-mulki, mablag‘lari, majburiyatlari, kapital, daromaddari, xarajatlari, foydasi (zarari)ning umumiy qiymati hamda ularning tarkibi to‘g‘risidagi, shuningdek, foydalanuvchilar uchun

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2023-yilning O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2023 yil 11sentyabr, PF-158-son Farmoni.

	учет. И.Е. Тишкев и др.- Минск: Высш. школа.,1991.стр.508-509)		zarur boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zida mujassam qilgan maxsus hisobot shakllarining yig'indisidir. Chunki, har bir mamlakatda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy hisobot shakllari va ularning ko'rsatkichlari belgilab qo'yiladi. (N.Yu.Jo'rayev. Moliyaviyhisobot. O'quvqo'llanma. TDIU. T.: 2007.)
2	«Buxgalteriya hisoboti xo'jalik rejalarini bajarilishi ustidan nazorat qilib turish uchun kerakli umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sistemasidan iborat» (Sotivoldiyev A.S. Buxgalteriya hisobi.T.: Mehnat, 1991 y. 452-bet)	2	Moliyaviy hisobotlarda sub'yektning o'z majburiyatlarini bajarishi va sarmoyalarni qaytarishi uchun daromad kelgusida pul tushumlarini olish qobiliyatini istiqbol qilishga yordam beradigan axborot aks ettirilishi kerak. (Moliyaviy hisob.T.: «Korana» 2000 y. 8-bet)
3	«Sanoat korxonalarining hisobot umumlashgan ko'rsatkichlar sistemasidan iborat bo'lib, unda korxonada moliya xo'jalik faoliyatining natijasi va ma'lum davrga reja ko'rsatkichlarining bajarilishi buxgalteriya, statistika va operativ-texnika hisobi ma'lumotlariga asoslanib xarakterlanadi.» (Umarova M. Buxgalteriya hisobi. T.: O'qituvchi, 1992 y. 242-243-betlar)	3	«Moliyaviy hisobot alohida mustaqil korxonada bo'lishi yoki xo'jalik yurituvchi korxonalarining uyushgan guruhiga kirishidan qat'iy nazar, bajaradigan va sub'yektga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy voqealarni va muomalalarni ko'rsatish usuli hisoblanadi.» (Karimov A.A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi.T.: Sharq, 410-bet)
4	«Ma'lum davrga bo'lgan hisob ko'rsatkichlarini umumlashtirish hisobot deb ataladi» (Qodirxonov S.B. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. T.: «O'qituvchi», 1993 y. 325-bet.)	4	«Moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holati, mablag'lari va ularning manbalarini ma'lum sanaga aks ettirilishi tushuniladi.» (Палий В.Ф. Современной бухгалтерский учет. Инфра-М, 2003 г. стр-48.)

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «hisobot» tushunchasiga berilgan ta'rifda asosan buxgalteriya hisobi va uning natijaviy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi hisobotning markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot sharoitidagi vazifalaridan kelib chiqqan holda yondoshilgan. Ushbu ta'riflarda buxgalteriya hisobi va hisobotiga qo'yilgan talablar va ularning o'ziga xos tamoyillariga asoslanilgan.

«Moliyaviy hisobot» tushunchasi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, shuningdek uning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda yoritilgan. «Hisobot» va «Moliyaviy hisobot» tushunchalariga ta'rif berishda har bir muallif uning qaysidir jihati va tomonlarini asos qilib olgan va unga tayangan holda ta'rifni shakllantirgan. Ammo «Hisobot» tushunchasi yoritilganda asosan rejani bajarilishiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, «moliyaviy hisobot» tushunchasiga ta'rif berishda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ahamiyati asos qilib olingan.

Bizning mamlakatimizda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq moliyaviy hisobotda quyidagi axborotlar bo'lishi lozim:

- investitsiya qarorlari va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda kerak bo'ladigan axborot;
- sub'yektning bo'lajak pul oqimlarini baholashda foydali axborot;
- sub'yektga berilgan resurslar, majburiyatlar va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida axborot.

Yuqoridagi axborotlardan tashqari, moliyaviy hisobotda batafsilroq ma'lumotlar ham beriladi. 1-BHMS «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ga asosan, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga pul mablag'lari harakati oqimini taxmin qilishga yordam beradigan, korxonaning mulki va ixtiyoridagi resurslari to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi zarur:

- korxonaning nazorati ostida bo'lgan aktivlar haqida;
- korxonaning passivlari haqida;
- korxonaning taqsimlanmagan daromadi, korxonaning bir davrdan boshqa davrga o'tishdagi iqtisodiy

imkoniyatlari va majburiyatlaridagi o'zgarishlar haqida;
-pul mablag'larining harakati haqida.

Kichik biznes sub'ektlarining jadal rivojlanishida faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy etib borish ham muhim hisoblanadi.

Bu esa, ular faoliyatini rivojlantirishni ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri bo'lgan buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti – Kichik sub'ektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibiga (20-sonli BHMS) muvofiq, birinchidan, kichik tadbirkorlik sub'ekti hisob siyosatini o'z moliyaviy xo'jalik faoliyati ehtiyojlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, mustaqil ishlab chiqadi, buxgalteriya hisobini esa, buxgalteriya hisobining qonun hujjatlarida belgilangan asosiy qoidalariga muvofiq yuritadi;

ikkinchidan, boshlang'ich hisob hujjatlari moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish uchun asos hisoblangani holda, ular boshlang'ich hisob hujjatlari moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilayotgan vaqtda yoki ular amalga oshirib bo'linganidan keyin tuziladi;

uchinchidan, buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan shaklda tashkil etish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) – Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasi tuziladi [6].

1-MHXS (Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari) bo'yicha buxgalteriya hisobining tayanch printsiplari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- * faoliyatning uzluksizligi;
- * buxgalteriya hisobi qoidalarining barqarorligi;
- * tushumni aniqlash uchun daromad va xarajatlar hisobini hisoblash usuli bo'yicha olib borilishi;
- * mazmunning shakldan ustuvorligi;
- * ma'lumotlarni MHXS talablariga muvofiq holda ishonchli aks ettirish;
- * hisob siyosatining qo'llaniladigan printsiplari mazmunini ochib berish;
- * aktivlar va passivlarni o'zaro voz kechilishiga yo'l qo'ymaslik;
- * muhimlik va agregatlash;
- * taqqoslama ma'lumotlar.

Buxgalteriya hisobi va hisobotning xalqaro tizimi haqida fikr yuritish uchun bu yangi iboraning mazmuni va mohiyatini anglab etish kerak. Moliyaviy hisob alohida o'rganilishi kerak bo'lgan hisob turi emas, balki uni buxgalteriya hisobining bir bo'lgi sifatida tushunmok lozim bo'ladi. Shuningdek, moliyaviy hisob mohiyati, mazmuni, ahamiyati va vazifalari bilan tanishib chiqish uchun buxgalteriya hisobi bo'yicha jahon amaliyoti hamda tajribasiga murojaat etish kerak.

Bu omillarni hisobga olib, biz xalqaro buxgalteriya hisobi tizimi va milliy buxgalteriya hisobi tizimlari bilan tanishib chiqamiz. «Buxgalteriya hisobi tizimi deb,

bu shunday yaxlit tizimga aytiladiki, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'minot, sotish jarayonlarini birlashtirib ko'rsatuvchi, makro va mikro darajada strategik va taktik masalalarni hal qilishga imkoniyat beruvchi buxgalteriya hisoblari rejasiga asoslangan bo'ladi».

- makro va mikro darajada qarorlar qabul qilish uchun etarli darajada axborotni olishda rivojlangan milliy buxgalteriya andozalarining mavjudligi va uning ishlatilishi;
- buxgalteriya hisobotining milliy hisoblar rejasini.

Hisoblar rejasini hisob tizimining maqsadiga mos kelib, eng asosiy o'rinda turadi. Hisoblar rejasini mulkchilik shakllari, baxolarning tashkil topish usul va uslublari, davlatning soliq siyosati kabilarga uzviy bog'langan ravishda tuzilib, hisob tizimining maqsadi va vazifalariga mos tushadi;

- korxonalar va tashkilot mikyosida buxgalteriya hisobining tashkiliy tizimi. Jahon tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ko'pgina hisob tizimlarida buxgalteriya ikkiga, ya'ni moliyaviy yoki umumiy va boshqaruv buxgalteriya hisobiga bo'lingan bo'ladi.

Moliyaviy yoki umumiy buxgalteriya hisobi korxonaning davlat, bank, aksionerlar, mol etkazib beruvchilar, xaridorlar, sarmoyadorlar va boshqa aloqador tashkilotlarni axborot bilan ta'minlash masalalarini hal qilish bilan shug'ullanadi.

Milliy hisob tizimiga mos keluvchi tashqi yoki moliyaviy buxgalteriya ma'lum bir darajada davlat tomonidan belgilanadi, ba'zi hollarda bir necha davlat tomonidan aniqlab beriladi. Bu moliyaviy hisob turi ko'prok tashqi aloqalar bilan bog'liq bo'lgani uchun davlat tomonidan aralashuv turli korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va firmalar moliyaviy hamda mulkiy faoliyatini bir xil baholash, moliyaviy natijalar, ya'ni foydani aniqlash bir xil usulda amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilar uchun korxonalar faoliyati va uning natijalari haqida ma'lumot beradi. Moliyaviy hisobning maqsadlari va vazifalari turlicha bo'lgani sababli, hisob turlari tubdan farq qiladi. Moliyaviy hisob umumqabul qilingan andozalar va tamoyillar asosida yuritiladi. Aynan shu andoza va tamoyillar moliyaviy axborotning yozilishi, baxolanishi va topshirilishini tartibga solib turadi. Hisobning bu umumqabul qilingan tamoyillari kreditorlar manfaatini himoya qilib, olinadigan axborotga ishonchni kuchaytiradi, lekin buxgalteriyaning usul va uslubiyotlarini tanlash imkoniyatini chegaralaydi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti standartlari hamda rivojlanishi muammolari bilan esa davlatlararo tashkilotlardan tashqari 6 ta xalqaro professional va uchta xalqaro kasaba uyushmasi tashkilotlari shug'ullanishadi. «Buxgalteriya hisobi modellari har xilligi muammosi O'zbekiston Respublikasi uchunгина emas, jahon miqyosida ham dolzarb bo'lib turibdi. Butun dunyoda moliyaviy hisobotlar tuzish va ulardan foydalanish jarayonida buxgalteriya hisobini bir xillashtirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Buxgalteriya hisobi turli tizimlarni uyg'unlashtirish tamoyili evropa Ittifoqi doirasida amalga oshirilmoqda. Uning mohiyatini shundaki, har bir mamlakatda hisobga olishni tashkil etishning o'z modeli va uni tartibga soluvchi andozalar tizimi mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu andozalar hamjamiyat mamlakatlaridagi shunga o'xshash andozalarga zid bo'lmasligi, ya'ni bir-biri bilan nisbiy «uyg'unlik»da bo'lishi zarur.

Xalqaro standartlar tobora ommaviylashishga ikkita voqea sabab bo'lgan: Birinchi voqea - moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari qo'mitasi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar xalqaro tashkiloti – (International Organization of Securities Commissions) o'rtasida bitim imzonlanganligidir. Undan AQSH moliyaviy doiralari va kongressning Amerika birjalarida aktsiyalar joylashtirishga ko'prok chet el kompaniyalarini jalb etishga intilishlari aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi milliy standartlarini tuzishda xalqaro standartlarga takomillashtirishga asoslanishi biz uchun axborotni ochishning aksariyat me'yorlari mamlakat uchun nisbatan yangi edi. Ularning amalda qo'llanilishi uslubiy qo'llanmalar va yuriqnomalar tayyorlashni birmuncha takomillashtirishni talab qilar edi. Bu usulning to'g'riligi shu bilan tushuntiriladiki, moliyaviy hisobga olish xalqaro standartlarining ob'ektiv ravishdagi afzal tomonlari qo'yidagilardan iborat:

-Iqtisodiy mantiq aniqligi;

- Hisobga olish sohasida zamonaviy jahon amaliyotida to'langan eng qimmatli tajribalar umumlashtirilishi;

- Dunyoning barcha mamlakatlaridagi moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar ushbu axborotni osonlik bilan tushunishi.

Turli mamlakatlarda ishlaydigan korxonalar moliyaviy hisobotlari konsolidatsiyalanishi sharoitida xalqaro standartlar kompaniyalarning sarf xarajatlarini qisqartiribgina qolmay, kapital jalb etishga qilinadigan sarflarni ham kamaytirish imkonini beradi. Ma'lumki, kapitalning bozor narxi istikbolda samara olish va tavakkalchilik kabi ikkita asosiy omil bilan belgilanadi. Ayrim tavakkalchiliklar kompaniyalar faoliyatining o'zi bilan bog'liq bo'ladi. Lekin ba'zi tavakkalchiliklarni axborot etishmasligi, kapital sarflarining samarasi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'qligi keltirib chiqargan. Andozalashtirilgan moliyaviy hisobot mavjud emasligi axborot etishmasligidan kelib chiqadi.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarning o'ziga xos afzal jihatlari mavjudligi tufayli ulardan turli mamlakatlar buxgalteriya hisobi olish milliy amaliyotida foydalanishga intilmokdalar. Lekin moliyaviy hisobotlar xalqaro andozalarning kamchiliklarini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Andozalar umumlashma tarzdaligi, bu esa hisobga olish usullarining xilma-xilligiga yo'l qo'yishi;

- Andozalarni aniq vaziyatlarga tatbik etish hususida batafsil talqin va misollar yo'qligi, bu esa ularning qo'llanilishini qiyinlashtirishi.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qo'mitasi ana shu murakkablashtiruvchi va salbiy omillarning barchasini e'tiborga olmoqda, ularni bartaraf etish bo'yicha faol ishlar qilinmoqda.

Iqtisodiyot yuksalishi omillaridan biri mulkchilik shakli turiliga erishib, davlat mulkchiligini yagona xukmronligiga chek qo'yishdir. Xozirgi davrga kelib xalq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, kontsern va birlashmalari nafaqat davlat mulkiga, balki, xususiy, jamoa, aktsionerlar mulkiga, hamda qo'shma korxonalar mulkiga ham asoslanmoqda. Korxonalar qaysi mulkchilik shakliga asoslanganligiga va faoliyati turi, doirasiga ko'ra, ular xo'jalik mablag'lari miqdori hamda hajmi turlicha bo'ladi.

Inventarizatsiya - korxonaga mablag'ini tekshirib, ro'yxatga olish va olingan ma'lumotlarni hisob ma'lumotlari bilan solishtirish demakdir

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishning ta'minlash borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalqimiz farovonligini ta'minlaydigan hamda kichik biznes sub'ektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishini joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish shubhasiz, bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifasi sifatida qaralishi zarur. Agar raqamli iqtisodiyot borasida mo'ljallangan vazifalar amalga oshirilsa, barcha sohalarida ulkan amaliy natijalar yaqqol ko'rinadi va aholi farovonligi sezilarli darajada ortadi. Kichik biznes sub'ektlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirish ular faoliyatini rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida, kichik biznes sub'ektlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirish buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablarin mazkur tizimiga to'laqonli joriy etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Kichik biznes sub'ektlarining hisob siyosatiga buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqqan holda kiritilgan o'zgarishlar tegishli tashkiliy hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa va moliyaviy yilning boshida kiritilgan bo'lsa, u holda mazkur o'zgarishlarning kichik biznes sub'ektlarining hisob siyosatiga ta'siri sezilarli bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <http://lex.uz> Tregubova V.M. Problemnii voprosi formirovaniya uchetnoy politiki malimi predpriyatiyami//Sotsial`no-ekonomicheskie yavleniya i protsessi. – Moskva, 2017. – №3. – S. 162.
2. Дмитриева И.М. Учетная политика предприятий в соответствии с МСФО для малого и среднего бизнеса//Аудитор. – Москва, 2013. – №12. – С. 44-48.
3. Syrbu A.N. Features of the organization of accounting at small business // International journal of humanities and natural sciences. 2014. Vol. 5, Part 2.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400 Toshkent sh., 2022 yil 10 noyabr`, 61-son.
5. Мухамедов Ф.Т. Жахон минтақаларда қимматли қоғозлар бозорининг ривожланиш тенденциялари//“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журналі. 2022 йил №1.
6. Бархатов А.П. Бухгалтерский учет внешнеэкономической деятельности. – М.: Дом Дашков и К, 2006, 309 с. Рябенская Т. Ю. Бухгалтерская (финансовая) отчетность: практические рекомендации по составлению. «Юридический Дом «Юстицинформ»». – М.: 2006. -210 стр.
7. Кожин В.Я. Бухгалтерский и налоговый учет: Управление прибылью. - М.: Экзамен, 2005.

8. Karimov A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004, 592 b. Подольский В.И, Поляк Г.Б., Савин А.А. и другие. Аудит. Учебник.-М.: ЮНИТИ, 2002. 11-12 стр.
9. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Учебник. –М.: Финансы и статистика, 1999. 7-бет.
10. Qodirxonov S. Sanoatda buxgalteriya hisobi. Darslik –T.: «O'zbekiston» nashriyoti. 1993, 326-bet